



BUYRUQ № 137-0

«21» 11 2025 yil.

Nukus shahri

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 81-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 81-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan quyidagilar:

davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, baholash va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etilgani hamda "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tartibi to'g'risida"gi nizomlar tasdiqlanganligi;

reyting baholash Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan «E-Anticor.uz» elektron platformasi (keyingi o'rinlarda — elektron platforma) orqali tashkil etilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasining 2024-yil 30 oktabrdagi 151-O-sonli buyrug'i bekor qilinsin.

4. Quyidagilar:

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati 1-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi xodimlarining odob-axloq qoidalarini 2-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida nizom 3-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti 4-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti 5-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma 6-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma 7-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasining markaziy apparati, tuman muassasalari va idoraviy mansub tashkilotlariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 8-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 9-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti 10-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasining markaziy apparati, tuman muassasalari va idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament 11-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida nizom 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi tarkibidagi tuman muassasalari va idoraviy mansub tashkilotlari rahbarlari o'zlari rahbarlik qilayotgan tashkilotlarda mazkur qaror va buyruqning mazmun va mohiyatini chuqur tushuntirilishi hamda unga qat'iy amal qilinishini ta'minlasin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi inson resurslari bo'yicha bosh mutaxassis (T.Sabirov), Bosh boshqarma tarkibidagi tuman muassasalari va idoraviy mansub tashkilotlar inson resurslari bo'yicha bosh mutaxassislari ishga qabul qilishda va rotatsiya/lavozimga tayinlanishda nomzodlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari bosh boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bilan imzo qo'ygan holda tanishtirilishi hamda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risidagi ariza to'ldirilishini ta'minlasin.

7. Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassis (D.Alpisbayev) mazkur buyruqni Bosh boshqarma apparati va barcha tarkibiy tuzilmalariga yetkazsin.

8. Ushbu buyruqning ijrosini qonunchilikda o'rnatilgan tartibda nazorat qilish Bosh boshqarma bosh muhandisi Yu.Ernazarov zimmasiga yuklatilsin.

Bosh boshqarma boshlig'i



U. Matnazarov